

DSc Akramjon KARIMOV, Zafar TULYAGANOV
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

**AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV MOLIYA
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI**

Annotatsiya. Maqolada aksiyadorlik jamiyatlarini rivojlantirishda va ularning daromadlarini oshirishda korporativ moliyani samarali tashkil etishning ilmiy-amaliy ahamiyati keng ochib berilgan. Mavzu yuzasidan xorijiy va milliy aksiyadorlik jamiyatlarini faoliyat natijalari tahlil etilgan. Shuningdek, moliyaviy resurslarni boshqarishda va umumfaoliyat yuzasidan rentabellikni taminlashda korporativ moliyada ishlatiladigan usul hamda modellar bo‘yicha amaliy misollar berilib, ularni rivojlantirish yuzasidan atroflicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: milliy iqtisodiyot, aksiyadorlik jamiyatlari, korporativ moliya, moliyaviy resurslar, rentabellik, pul oqimlari, sof foyda, ROE, ROA, ROI, samaradorlik, moliyaviy menejment, bozor kapitallashuvi, daromad, xarajat, DCF, CAPM, WACCA.

**ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ KORPORATIVNOGO
ФИНАНСОВОГО МЕХАНИЗМА В АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВАХ**

Аннотация. В статье широко раскрыто научное и практическое значение эффективной организации корпоративных финансов в развитии акционерных обществ и увеличении их доходов. По теме проанализированы результаты деятельности иностранных и отечественных акционерных обществ. Также были приведены практические примеры методов и моделей, используемых в корпоративных финансах при управлении финансовыми ресурсами и обеспечении рентабельности в общей деятельности, а также разработаны комплексные предложения и рекомендации по их развитию.

Ключевые слова: национальная экономика, акционерные общества, корпоративные финансы, финансовые ресурсы, рентабельность, денежные

потоки, чистая прибыль, ROE, ROA, ROI, эффективность, финансовый менеджмент, рыночная капитализация, доход, стоимость, DCF, CAPM, WACCA.

WAYS TO IMPROVE THE CORPORATE FINANCIAL MECHANISM IN JOINT-STOCK COMPANIES

Abstract. The article broadly reveals the scientific and practical importance of effective organization of corporate finance in the development of joint-stock companies and increasing their income. The results of the activities of foreign and national joint-stock companies on this topic are analyzed. Also, practical examples of methods and models used in corporate finance in managing financial resources and ensuring profitability in general activities are given, and detailed proposals and recommendations for their development are developed.

Key words: national economy, joint-stock companies, corporate finance, financial resources, profitability, cash flows, net profit, ROE, ROA, ROI, efficiency, financial management, market capitalization, income, cost, DCF, CAPM, WACCA.

KIRISH

Jahondagi rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda aksiyadorlik jamiyatlari shaklidagi kompaniyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Zero, ular davlat va jamiyat uchun mahsulotlar, ish va xizmatlar yaratadilar. Jahon Bankining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, "Dunyo YaIMsi 1991-yilda 23,91 trln. AQSH dollarini, 2023-yilda 106,17 trln. AQSH dollarini yoki so'nggi 32 yilda 444,04 foizga oshgan"[1]. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ moliya mexanizmini takomillashtirish zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida kapitalni samarali boshqarish va investor ishonchini mustahkamlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, global kapital bozorlarining o'zgaruvchanligi, moliyaviy vositalarning diversifikatsiyalashuvi va raqobat muhitining keskinlashuvi aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash strategiyalarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Korporativ moliya tizimini takomillashtirish esa kapital tuzilmasini optimallashtirish, dividend siyosatini samarali yuritish va investitsion jozibadorlikni oshirish orqali amalga oshiriladi.

Zamonaviy aksiyadorlik jamiyatlari ko‘p hollarda kapital manbalarining yetarlicha samarali taqsimlanmasi, qarz va aksiyadorlik kapitalining optimal nisbatini belgilashdagi muammolar hamda korporativ boshqaruvning zaifligi kabi qator muammolarga duch keladi. Masalan, xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aksiyadorlarning manfaatlari bilan menejerlarning moliyaviy qarorlari o‘rtasidagi nomutanosiblik agentlik muammosini kuchaytirib, kompaniyaning bozor qiymatini pasaytirishi mumkin. Shu sababli, moliyaviy shaffoflikni oshirish, samarali monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish hamda aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan mexanizmlarni joriy etish korporativ moliya tizimini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi. Shuningdek, moliyaviy boshqaruv strategiyasini takomillashtirish aksiyadorlik jamiyatlariga ichki va tashqi kapital bozorlaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan mamlakatlardagi aksiyadorlik jamiyatlari uzoq muddatli moliyalashtirishning zamonaviy mexanizmlaridan keng foydalanadi. Masalan, AQSh va Yevropa mamlakatlarida korporativ obligatsiyalar va IPO amaliyotidan keng foydalanish aksiyadorlik jamiyatlarining kapital jalb qilish samaradorligini oshiradi. Xususan, Visual Capitalist nashrning ma’lumotlariga ko‘ra “2024-yilda AQSHda 32,8 mlrd. AQSH dollarlik 183 ta, Hindistonda 19,9 mlrd. AQSH dollarlik 327 ta, Yevropada 18,2 mlrd. AQSH dollarlik 115ta, Xitoyda 8,9 mlrd. AQSH dollarlik 98 ta IPOlar o‘tkazilgan”[2]. Shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlarda korporativ obligatsiyalar bozori yetarlicha rivojlanmaganligi sababli, aksiyadorlik jamiyatlari asosan bank kreditlariga tayanishga majbur bo‘lmoqda, bu esa moliyaviy xarajatlarni oshiradi va kompaniyalarning investitsion imkoniyatlarini cheklaydi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosatini takomillashtirish ham muhim o‘rin tutadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, barqaror va oldindan bashorat qilinadigan dividend siyosati investorlarning ishonchini oshirish bilan birga, kompaniya aksiyalarining likvidligini ham ta’minlaydi. Shu boisdan, aksiyadorlik jamiyatlari o‘z dividend strategiyasini bozordagi holat, kompaniyaning investitsion rejalari va aksiyadorlarning manfaatlarini hisobga olgan holda shakllantirishi lozim.

Raqamli texnologiyalar va innovatsion moliyaviy vositalarning joriy etilishi korporativ moliya tizimini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Masalan, blockchain texnologiyalaridan foydalanish moliyaviy operatsiyalar shaffofligini ta'minlab, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishi mumkin. Bundan tashqari, sun'iy intellekt asosidagi moliyaviy monitoring tizimlari kompaniyalarga moliyaviy xatarlarni aniqlash va minimallashtirish imkoniyatini beradi. Shu jihatdan, aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy boshqaruv strategiyasiga zamonaviy texnologiyalarni integratsiya qilish ularning bozor barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasida ham aksiyadorlik jamiyatlarini faoliyatini va ularni moliyaviy barqarorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida "Mamlakatimizda 250 milliard dollarlik investitsiyalarni o'zlashtirish, jumladan 110 milliard dollar xorijiy investitsiyalar va 30 milliard dollar davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investitsiyalarni jalb qilish"[3] kabi vazifalkar belgilangan va bunda aksiyadorlik jamiyati shaklidagi kompaniyalarning o'rini alohida qayd etish joizdir. Ushbu jihatlarni inobatga olib, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ moliya mexanizmini takomillashtirish yo'llari bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hozirgi zamonda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiyotni rivojlantirish har qanday davlatning eng ustivor maqsadlaridan biri hisoblanib, bunda milliy kompaniyalarni moliyaviy barqarorligini ta'minlash alohida ahamiyat kasb etadi hamda nufuzli tashkilotlar va olimlar tomonidan ilmiy-amaliy tadqiqotlar doimiy ravishda olib boriladi. Turli olimlar va tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlar asosida ta'kidlash mumkinki, milliy kompaniyalarda, jumladan aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ moliya mexanizmini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Jumladan, iqtisodchi olimlardan Davies va Crawford (2014) "korporativ moliya va moliyaviy strategiyani aksiyadorlar qiymatini oshirish uchun muhim vosita sifatida ko'rsatib, kompaniyalar o'z kapital tuzilmasini optimallashtirish orqali moliyaviy samaradorlikka erishishlari mumkinligini"[4] ta'kidladilar. Ushbu jihatlarni inobatga olsak, aksiyadorlik jamiyatlarida kapital oqimini samarali boshqarish

investitsion resurslarga bo'lgan ehtiyojni qondirishda o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Bizga ma'lumki, aksiyadorlik jamiyatlari hozirgi kunda barcha sohalarda faoliyat olib bormoqda. Iqtisodchi olimlardan Ganesan (2017) o'z tadqiqotlarida qayd etganidek, “telekommunikatsiya uskunalari sanoatida aylanma mablag'larni boshqarish samaradorligini tahlil qilib, samarali boshqaruv tizimlari moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynashini ko'rsatdi”[5]. Fikrimizcha, moliyaviy texnologiyalarni rivojlanishi aksiyadorlik jamiyatlari korporativ moliyasida ham samaradorlikni oshirdi va jarayonlarni optimallashtirdi.

Xorijlik iqtisodchi olimlardan G.Epstein, I.Grabel, K.Jomo (2019) o'zlarining tadqiqot ishlarida qayd etishlaricha “rivojlanayotgan mamlakatlarda kapitalni boshqarish texnikasini baholab, ichki nazorat tizimlarini kuchaytirish va innovatsion yondashuvlarni qo'llash orqali korporativ moliya mexanizmlarini takomillashtirish mumkinligini ko'rsatdilar”[6]. ya'ni rivojlanayotgan davlatlardagi aksiyadorlik jamiyatlari uchun ichki nazorat tizimlari, jumladan, ichki audit va moliyaviy monitoring juda muhim ahamiyat kasb etib, aksiyadorlarni manfaatlarni ta'minlaydi va kompaniyadagi moliyaviy resurslar sarfini shaffof tarzda aks etirib turadi.

Iqtisodchilardan Tao (2024) tomonidan olib borilgan tadqiqotda, “2010–2021 yillarda Xitoyning ko'chmas mulk sektoridagi kompaniyalarning kapital tuzilmasi va ularning samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlik o'rganilgan. Tadqiqot natijalari kapital tuzilmasining samaradorlikka ta'siri sanoat va bozor rivojlanish darajasiga bog'liqligini ko'rsatgan”[7].

Xorijlik iqtisodchi olimlar jamoasi - Nenu, Vintilă va Gherghina (2018) tomonidan “Bukarest fond birjasida ro'yxatga olingan kompaniyalar misolida o'tkazilgan tadqiqotda, kapital tuzilmasining risk va kompaniya samaradorligiga ta'siri empirik ravishda tahlil qilingan”[8] bo'lib, kapitalni jalb etishda fond bozorining iqtisodiy ahamiyati atroflicha bayon etilgan.

Mahalliy iqtisodchi olimalardan Akramova N.I. o'zining doktorlik dissertatsiyasida ta'kidlashicha, “Aksiyadorlik jamiyatlari iqtisodiy ko'rsatkichlarini mustahkamlash, bozor qiymatini oshirish va aksiyadorlar manfaatini oshirish korporativ madaniyatni standartlashtirish kerakligini ko'rsatdi. Bu, aksiyadorlik jamiyatlari uchun korporativ muhitni yaxshilashda juda muhim bir qadamdir. Korporativ madaniyatni samarali boshqarishning ijobiy

bo‘lishi, insoniy munosabatlarini rasmiylashtirish usullarini yaxshi tuzish bilan bog‘liqdir”[9]. Iqtisodchi korporativ moliya va korporativ madaniyatni o‘zaro uyg‘unligda olib borish lozimligini, undagi moliyaviy menejerlarni o‘rni atroflicha bayon etgan.

Iqtisodchi olimlardan Jumaniyazov I., To‘laganova F. fikricha “Aksiyadorlik jamiyatlari samaradorligini yaxshilash, shuningdek daromad miqdorini oshirish uchun davr xarajatlari, ma‘muriy xarajatlar singari xarajatlarni kamaytirish hamda asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida asosiy fondlarni yangilash, texnologik qayta jihozlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Moliyaviy strategiyalarning bosh maqsadi bo‘lishi kerak”[10] Ushbu jihatlarni inobatga olsak, aksiyadorlik jamiyatlarida rentabellikni doimiy ravishda yuqorilab borish muhimdir.

Iqtisodchi olimlarimizdan J.Qurbonov ta’kidlaganidek “Debitorlik qarzlari samarali boshqarish nafaqat kompaniyaning ichki moliyaviy barqarorligini oshiradi, balki uni investorlar uchun jozibali qiladi. Shu sababli, kompaniyalar debitorlik siyosatini qayta ko‘rib chiqib, to‘lov intizomini kuchaytirish, qarz berish shartlarini optimallashtirish va monitoring tizimini joriy etish orqali o‘z investitsion jozibadorligini oshirishi mumkin o‘ylaymiz”[11]. Qayd etishimiz joizki, debitorlik qarzlari barcha turdagi kompaniyalarda asosiy muammolardan hisoblanadi va shu bois ular bo‘yicha moliyaviy strategiyalar yaratish zarurdir.

Bizga ma’lumki, milliy iqtisodiyotimizdagi aksiyadorlik jamiyatlarida davlatning ulushi yuqori hisoblanadi. Xususan, iqtisodchi olimlardan S.Elmirzaev, B.Abduraimovlarning ilmiy tadqiqotlarida qayd etilishicha “Davlat korxonalarini xususiylashtirish butun dunyoda iqtisodiy samaradorlikni oshirish, bozor raqobatini kuchaytirish va xususiy investitsiyalarni jalb qilish uchun keng qabul qilingan strategiya hisoblanadi. Xususiylashtirishning keng tarqalgan usullaridan biri aksiyalarni birlamchi ommaviy takliflar (IPO) orqali aholiga sotishdir”[12]. Davlat ulushi yuqori bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlarni IPOlar orqali xususiylashtirish davlat, kompaniya va investor uchun manfaatli bo‘ladi hamda umumiy iqtisodiy rivojlanishga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ moliya mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar kompaniyalarning moliyaviy barqarorligini oshirish va investorlarning ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Moliyaviy

shaffoflik, optimal kapital tuzilmasi va dividend siyosati aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilishning asosiy omillari hisoblanadi. Shu boisdan, O‘zbekiston sharoitida ushbu mexanizmlarni joriy etish davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishi mumkindir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Maqolada Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi va boshqa moliya tashkilotlari, transmilliy kompaniyalar, shuningdek, O‘zbekiston respublikasi Markaziy banki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, rasmiy statistik ma’lumotlari va ilmiy tadqiqotlari natijasi asosida matematik statistik tahlil, ko‘rsatkichlar monitoringi, kuzatuv kabi metodlar yordamida tahlil amalga oshirildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR MUHOKAMASI.

Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ moliya mexanizmi kompaniyaning moliyaviy resurslarini boshqarish, ulardan samarali foydalanish va aksiyadorlar manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan tizimdir. Ushbu mexanizm kompaniyaning kapital strukturasi shakllantirish, investitsiyalarni boshqarish va dividend siyosatini belgilashni o‘z ichiga oladi. Moliya mexanizmi samarali ishlashi uchun aksiyadorlar va menejment o‘rtasidagi aniq va shaffof ma’lumot almashish zarur. Boshqaruv jarayonlarida ilg‘or texnologiyalardan foydalanish, investitsion risklarni boshqarish, va kapitalni optimal taqsimlash kompaniyaning moliyaviy barqarorligini oshiradi. Korporativ moliya mexanizmining asosiy maqsadi, kompaniyaning bozor sharoitlariga moslashish va moliyaviy xavf-xatarlarni kamaytirishdir. Shuningdek, kompaniya ichidagi moliyaviy tizimni takomillashtirish orqali uning barqaror o‘sishiga erishish mumkin. Bu jarayon aksiyadorlar ishonchini oshirish va ularga yuksak daromad olish imkoniyatini taqdim etadi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ moliya mexanizmi kapital oqimlarini samarali boshqarish, investitsiyalarni jalb etish va aksiyadorlarning manfaatlarini ta’minlash uchun muhim vosita hisoblanadi. Korporativ moliyaviy boshqaruvning asosiy omillaridan biri kompaniyaning kapital tuzilmasini optimallashtirishdan iborat bo‘lib, u qarz va o‘z kapitali nisbatini to‘g‘ri belgilash orqali risk va

rentabellikni muvozanatlashtirishga qaratilgan.



1-rasm. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ moliya mexanizmini takomillashtirish yo'llari

Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ moliya mexanizmini takomillashtirishning birinchi yo'li – kompaniya aktivlarining samarali boshqarilishini ta'minlashdir. Bu jarayonda aktivlar bilan bog'liq risklarni minimallashtirish, kapitalni optimal taqsimlash va ularning rentabelligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, rentabellikni ta'minlashda korporativ qarorlar va strategiyalar, shuningdek, moliyaviy resurslarni boshqarish tizimi alohida rol o'ynaydi. Aktivlar va majburiyatlar o'rtasidagi balansni ushlab turish, kompaniyaning moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Korporativ moliya mexanizmini takomillashtirishning ikkinchi yo'li – aksiyadorlar va menejment o'rtasidagi ma'lumot almashishni yaxshilashdir. Aksiyadorlarga moliyaviy ma'lumotlarning aniq va o'z vaqtida taqdim etilishi, ularning investitsion qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirokini oshiradi. Bu, o'z navbatida, kompaniya ichidagi boshqaruvni shaffof va samarali qiladi, aksiyadorlar o'rtasida ishonchni mustahkamlashga yordam beradi. Moliyaviy hisobotlarning aniq va ishonchli bo'lishi, kompaniyaning umumiy moliyaviy holatini baholashga yordam beradi.

Uchinchi yo'l – korporativ moliya boshqaruvini samarali tashkil etish uchun ilg'or texnologiyalarni qo'llashdir. Moliyaviy tahlil va prognozlash jarayonlarini avtomatlashtirish, ma'lumotlarni tezkor qayta ishlash imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, raqamli platformalar orqali investorlar va aksiyadorlar bilan bevosita

aloqalarni o'rnatish, korporativ moliyaviy boshqaruvni zamonaviylashtirishga imkon beradi. Moliyaviy risklarni boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish, prognoz qilishning aniqligini oshiradi.

Korporativ moliya mexanizmini takomillashtirishda yirik investitsion loyihalarga e'tibor qaratish zarur. Aksiyadorlik jamiyatlari ko'pincha uzoq muddatli investitsion loyihalarga qaror qabul qilayotganda, moliyaviy resurslarni to'g'ri taqsimlash masalasiga duch keladi. Loyiha moliyalashtirish usullarini takomillashtirish, bank kreditlari, obligatsiyalar yoki aksiyalar orqali kapital jalb qilish strategiyalarini qayta ko'rib chiqish zarur. Investitsion loyihalarning samarali boshqarilishi, kompaniyaning moliyaviy barqarorligini oshirishga yordam beradi.

Korporativ moliya mexanizmini takomillashtirishning beshinchi yo'li – dividend siyosatini optimallashtirishdir. Aksiyadorlar uchun dividend to'lovlari kompaniyaning moliyaviy natijalarini ta'sir etadi, shuning uchun bu jarayonni yanada samarali tashkil etish kerak. Kompaniyaning naqd pul oqimlarini hisobga olgan holda, dividend siyosatini doimiy ravishda qayta ko'rib chiqish, aksiyadorlarning daromadlarini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, dividendlar siyosatini oshkor qilish, kompaniyaning moliyaviy shaffofligini oshiradi.

Oltinchi yo'l – kompaniyaning kapital strukturasi optimallashtirishdir. Kapital strukturasi to'g'ri shakllanishi, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Aksiyadorlik jamiyatlari qarz va kapital o'rtasidagi muvozanatni izlashda, qarz resurslarini samarali boshqarishning usullarini takomillashtirishi lozim. Kapital strukturasi o'zgarishlar, jamiyatning investorlar bilan aloqalarini mustahkamlash va ularning qiziqishlarini inobatga olish imkonini yaratadi.

Yettinchi yo'l – korporativ moliya boshqaruvining risklarni minimallashtirishdagi rolini kuchaytirishdir. Kompaniya moliyaviy xavf-xatarlarni oldini olish va ularni boshqarish bo'yicha aniq siyosatlarni ishlab chiqishi kerak. Xususan, bozor sharoitlaridagi o'zgarishlarga tezkor moslashish, inflyatsiya va valyuta kurslari risklarini kamaytirish uchun samarali chora-tadbirlar ko'rish zarur. Risklarni boshqarish tizimi samarali ishlashi, kompaniyaning barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Sakkizinchi yo'l – xodimlar va menejmentni moliyaviy boshqaruvni yanada samarali amalga oshirishga tayyorlashdir. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy

boshqaruvning muvaffaqiyati, yuqori malakali mutaxassislarning ishtirokiga bogʻliq. Xodimlarga va menejmentga korporativ moliya boʻyicha zarur bilimlarni berish, ularning ish faoliyatini samarali tashkil etishga yordam beradi. Boshqaruvdagi mutaxassislarning va xodimlar oʻrtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, jamiyatning umumiy moliyaviy holatini yaxshilashga olib keladi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ moliya mexanizmini takomillashtirish, kompaniyaning moliyaviy barqarorligini taʼminlash va aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish uchun muhimdir. Buning uchun birinchi navbatda, aktivlar va kapitalni samarali boshqarish, aksiyadorlar bilan maʼlumot almashish, ilgʻor texnologiyalarni qoʻllash va yirik investitsion loyihalarni boshqarish zarur. Dividend siyosatini optimallashtirish, kapital strukturasi toʻgʻri shakllantirish va risklarni boshqarish ham korporativ moliya mexanizmini yanada samarali qilishga yordam beradi. Bularning barchasi kompaniyaning moliyaviy shaffofligini oshirib, investorlar ishonchini kuchaytiradi va uzoq muddatli barqaror oʻsishga erishishga imkon yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ moliya mexanizmi, kompaniya faoliyatini moliyaviy boshqarishning asosiy vositalaridan biri boʻlib, uning moliyaviy resurslarini samarali taqsimlashga xizmat qiladi. Ushbu mexanizm investitsiyalarni jalb qilish, moliyaviy risklarni boshqarish va korporativ qarorlarni qabul qilishda muhim rol oʻynaydi. Kapitalni optimallashtirish, aksiyadorlarga dividend toʻlash siyosatini aniqlash va moliyaviy shaffoflikni taʼminlash korporativ moliya mexanizmi asosiy tarkibiy qismlaridir. Shuningdek, jamiyatning bozor sharoitlariga moslashuvchanligini oshirish uchun ilgʻor moliyaviy texnologiyalarni qoʻllash zarur. Xodimlarni moliyaviy boshqaruvga tayyorlash va menejmentning malakasini oshirish, jamiyatning umumiy moliyaviy holatini yaxshilashga yordam beradi. Bunda, korporativ moliya mexanizmi kompaniyaning uzoq muddatli muvaffaqiyatini taʼminlash uchun muhim strategik vosita hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatlarida samarali moliyaviy boshqaruv tizimi tashkil etish, kompaniyaning barqarorligini va raqobatbardoshligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ moliya mexanizmini takomillashtirish ularning investitsion jozibadorligi, moliyaviy

barqarorligi va aksiyadorlarning manfaatlarini samarali himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kapital tuzilmasini optimallashtirish, dividend siyosatini shakllantirish, moliyaviy shaffoflikni oshirish hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali aksiyadorlik jamiyatlari global kapital bozorida o'z pozitsiyasini mustahkamlashi mumkin. Shu bois, moliyaviy boshqaruv mexanizmlarini uzluksiz takomillashtirish ham nazariy, ham amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jahon Bankining rasmiy ma'lumotlari
<https://data.worldbank.org/indicator/NY.GDP.MKTP.CD?locations=1W>
2. <https://www.visualcapitalist.com/visualizing-global-ipos-in-2024-by-country/?weekend-reading-link-210225/>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "“O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida” Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son; 29.12.2023-y., 06/23/214/0984-son)
4. Davies T., & Crawford I. (2014). Corporate Finance and Financial Strategy: Optimising Corporate and Shareholder Value. Pearson Higher Ed.
5. Ganesan V. (2007). An Analysis of Working Capital Management Efficiency in Telecommunication Equipment Industry. Rivier Academic Journal, 3(2).
6. Epstein G., Grabel I., & Jomo K. S. (2003). Capital Management Techniques in Developing Countries. In A. Buira (Ed.), Challenges to the World Bank and IMF: Developing Country Perspectives (pp. 141-174). Anthem Press.
7. Tao, Z. (2024). Impact of capital structure on corporate efficiency in China's real estate sector: Evidence from 2010–2021 data. EWA Direct Proceedings.

8. Nenu, E. A., Vintilă, G., & Gherghina, Ș. C. (2018). The impact of capital structure on risk and firm performance: Empirical evidence for the Bucharest Stock Exchange-listed companies. *Journal of Risk and Financial Management*, 6(2), 41.
9. Akramova Nazokat Israilovna “Aksiyadorlik jamiyatlari samaradorligini oshirishda korporativ madaniyatni rivojlantirish” PhD dar. olish uchun yoz. diss. avto. – T.: TDIU, 2024-yil, 54-bet.
10. Jumaniyazov I., To’Laganova F. Aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ moliya strategiyasini rivojlantirishda xorij tajribasi //Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 6. – C. 836-847.
11. Qurbonov J. KORXONALARDA DEBITORLIK QARZLARINI BOSHQARISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISH YO’LLARI //Nashrlar. – 2025. – T. 4. – №. 1. – C. 192-194.
12. Elmirzayev S., Abduraimov B. Davlat ishtirokidagi korxonalarni hususiyashtirish-ning moliya bozorini rivojlantirishdagi o’rni //Perspektivi reformirovaniya i ustoychivogo razvitiya narodnogo xozyaystva. – 2024. – T. 1. – №. 1. – S. 444-447.